

# JOURNAL OF TRANSPORT



ISSUE 1, 2025 vol. 2

E-ISSN: 2181-2438

ISSN: 3060-5164



RESEARCH, INNOVATION, RESULTS



**TOSHKENT DAVLAT  
TRANSPORT UNIVERSITETI**

Tashkent state  
transport university



**JOURNAL OF TRANSPORT**

RESEARCH, INNOVATION, RESULTS

**E-ISSN: 2181-2438**

**ISSN: 3060-5164**

**VOLUME 2, ISSUE 1**

**MARCH, 2025**



[jot.tstu.uz](http://jot.tstu.uz)

# TASHKENT STATE TRANSPORT UNIVERSITY

## JOURNAL OF TRANSPORT

SCIENTIFIC-TECHNICAL AND SCIENTIFIC INNOVATION JOURNAL

VOLUME 2, ISSUE 1 MARCH, 2025

**EDITOR-IN-CHIEF**

**SAID S. SHAUMAROV**

*Professor, Doctor of Sciences in Technics, Tashkent State Transport University*

**Deputy Chief Editor**

**Miraziz M. Talipov**

*Doctor of Philosophy in Technical Sciences, Tashkent State Transport University*

---

The "**Journal of Transport**" established by Tashkent State Transport University (TSTU), is a prestigious scientific-technical and innovation-focused publication aimed at disseminating cutting-edge research and applied studies in the field of transport and related disciplines. Located at Temiryo'Ichilar Street, 1, office 465, Tashkent, Uzbekistan (100167), the journal operates as a dynamic platform for both national and international academic and professional communities. Submissions and inquiries can be directed to the editorial office via email at [jot@tstu.uz](mailto:jot@tstu.uz).

The Journal of Transport showcases groundbreaking scientific and applied research conducted by transport-oriented universities, higher educational institutions, research centers, and institutes both within the Republic of Uzbekistan and globally. Recognized for its academic rigor, the journal is included in the prestigious list of scientific publications endorsed by the decree of the Presidium of the Higher Attestation Commission No. 353/3 dated April 6, 2024. This inclusion signifies its role as a vital repository for publishing primary scientific findings from doctoral dissertations, including Doctor of Philosophy (PhD) and Doctor of Science (DSc) candidates in the technical and economic sciences.

Published quarterly, the journal provides a broad spectrum of high-quality research articles across diverse areas, including but not limited to:

- Economics of Transport
- Transport Process Organization and Logistics
- Rolling Stock and Train Traction
- Research, Design, and Construction of Railways, Highways, and Airfields, including Technology
- Technosphere Safety
- Power Supply, Electric Rolling Stock, Automation and Telemechanics, Radio Engineering and Communications
- Technological Machinery and Equipment
- Geodesy and Geoinformatics
- Automotive Service
- Air Traffic Control and Aircraft Maintenance
- Traffic Organization
- Railway and Road Operations

The journal benefits from its official recognition under Certificate No. 1150 issued by the Information and Mass Communications Agency, functioning under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan. With its E-ISSN 2181-2438, ISSN 3060-5164 the publication upholds international standards of quality and accessibility.

Articles are published in Uzbek, Russian, and English, ensuring a wide-reaching audience and fostering cross-cultural academic exchange. As a beacon of academic excellence, the "Journal of Transport" continues to serve as a vital conduit for knowledge dissemination, collaboration, and innovation in the transport sector and related fields.

## The importance of agribusiness in ensuring food security in the republic

A.T. Seyfullaeva<sup>1</sup>, M.S. Abishov<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Karakalpakstan Institute of Agriculture and Agrotechnologies, Nukus, Uzbekistan

<sup>2</sup>Karakalpak State University, Nukus, Uzbekistan

**Abstract:** The article describes in detail that the government of our Republic plays an important role in agribusiness, organizing the further expansion of the production of entities contributing to the country's food shortage, and ensuring its economic and social development.

**Keywords:** Ensuring food security, agribusiness activities, the Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO) and the World Health Organization, the agro-industrial complex and its locomotive

## Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini taminlashda agrobiznesning ahamiyati

Seyfullaeva A.T.<sup>1</sup>, Abishov M.S.<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Nukus, O'zbekiston

<sup>2</sup>Qoraqalpog davlat universiteti, Nukus, O'zbekiston

**Annotatsiya:** Maqolada Respublikamiz hukumati tomonidan agrobiznesda ish yuritish, mamlakat oziq-ovqat havfsizligini taminlashga munosib qissa qo'shayotgan sub'ektlarning ishlab chiqarishini yanada kengaytirishni tashkillashtirish, iqtisodiy va sotsial tamondan rivojlanishini ta'minlash uchun ham muhim o'rin tutishi haqida batafsil bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Oziq-ovqat xavfsizligini taminlash, agrobiznes faoliyati, BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) va Butun jahon sogliqni saqlash tashkiloti, agrosanoat majmuasi va uning lokomotivi

### 1. Kirish

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin, qishloq xo'jaligida bosqichma-bosqich amalga oshirilgan mutlaqo iqtisodiy islohotlar yo'nalishining doimiy rivojlanishini ta'minlashga asos boldi. Qishloq xo'jaligi korxonalarini qayta tashkillashtirish jarayonida qishloqda yakka mulkka egalik qiluvchilar sinfi shakllandi. Natijada ishlab chiqarishni yo'lga qoyishda xalqimizning mentalitiga xos va jahonning oldingi tajribasiga asoslangan bozor munosabatlari sharoitida natijali ishbilarmonlik yurita oladigan dehqon va fermer xo'jaliklari tuzildi va ular bugungi kunda qishloq xo'jaligida asosiy xo'jalik yurgizuvchi subyekt hisoblanadi [1].

Shuning bilan birga qishloq xo'jaligi ekinlari tarkibini yetishtirish natijasida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishga asosiy e'tibor qaratiladi. Bu bo'lsa o'z navbatida qayta ishlash korxonalarini xom-ashyo, xalqni oziq-ovqat mahsulotlari bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport potensial oshirishga asos yarattiradi.

Oziq-ovqat xavfsizligini taminlash har bir mamlakatning milliy xavfsizligining strukturaviy qismi bo'lib hisoblanadi. Xalqni oziq-ovqat mahsulotlari bilan taminlashning yaxshilanishi ijtimoiy-iqtisodiy vazifa bo'lib, uni yechish har bir mamlakat uchun zarurli ahamyatga ega boladi.

Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini taminlash siyosati o'z-o'zini oziq-ovqat mahsulotlari bilan taminlash darajasi hamda ularni import qilish darajalarini aqillilik bilan joylashdirish, mamlakat xalqni oziq-ovqat mahsulotlari bilan

taminlashning kafolatlangan imkoniyatlarini yaratish, bunga tegishli xalqaroлик sheriklik bog'lanishlarni o'rnatish zarur hisoblanadi. Bundan tashqari bu siyosat doima takrorlanadigan turda yangilanib turadigan oziq-ovqat zahirasining yaratilishiga qaratilgan bo'ladi.

Oziq-ovqat xavfsizligini taminlashda agrobiznes faoliyati muhim rol o'ynaydi. Bunga tegishli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 – yillarga mo'ljallangan strategiyasida “Qishloq xo'jaligini isloh qilish va oziq-ovqat xavfsizligini taminlash masalalari, shubhasiz, biz uchun eng zarur vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Avvalambor, agrosanoat majmuasi va uning lokomotivi, ya'ni harakatga keltiradigan kuchli bo'lgan fermer xo'jaliklarini ketma-ket rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi”, dep aytib o'tgan. Prezident tomonidan kelajakdagi strategiyaviy zarurli vazifa sifatida ekin maydonlari va ekinlar tarkibini optimallashtirish, oldingi agrotexnologiyalarni olib kirish va unumdorlikni oshirish, meva-poliz ekinlari va uzum yetishtirishni ko'paytirish belgilangan [2].

### 2. Tadqiqot usullari

Tadqiqot olib borish jarayonida abstrakt mantiqiy fikrlash, iqtisodiy-statistik, taqqoslama tahlil, monografik kuzatish va ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

<sup>a</sup><https://orcid.org/0000-0003-2903-1663>



### 3. Tahlil va natijalar

Oziq-ovqat xavfsizligi bu iqtisodiyotning shunday holati bo'lib, bunda jahon bozorlari tebranishiga qaramasdan bir tamondan, ilmiy asoslangan ko'rsatkichlarga mos miqdorlarda, ikkinchi tamondan tibbiy meyorlar darajasida iste'molchilarni qaniqtirish uchun shart-sharoit yaratilgan holda xalqni oziq-ovqat mahsulotlari bilan doimiy taminlash kafolati beriladi [5].

Oziq-ovqat xavfsizligiga erishishning asosiy maqsadi ichki va tashqi salbiy ta'sirga tegishli bo'lmagan holda qayta ishlaydigan korxonalarini xom-ashyo, xalqni oziq-ovqat mahsulotlari bilan taminlash bo'lib hisoblanadi. U hatto valyutaning yetishmasligi, chetdan mahsulotlarni olib kelishda embargo (boshqa mamlakatlar tamonidan tosiqlar qoyish) baholarning o'sishiga bog'liq bo'lmasligi kerak.

BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) va Butun jahon sogliqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra hozirda dunoda 800 mln.dan ortiq odam, ya'ni deyarli har 8 odamning biri to'yib

ovqatlanmaydi, eng asosiy mikroelement va vitaminlar yetishmasligi masalasi bilan hayot kechirishmoqda [6].

Oziq-ovqat ta'minotida shunday murakkab jarayonlar kuzatilib turgan bir vaqtda mamlakatimizda qishloq xo'jaligi ekinlari ko'p va sifatli mahsulot olish maqsadida ishlab chiqilgan dasturlar ketma-ketlik bilan amalga oshirilib kelmoqda. Natijada 2020-yil uchun belgilangan oziq-ovqat dasturlari bo'yicha 21368,2 ming tonna poliz ekinlari, kartoshka, poliz, meva va uzum ishlab chiqarilib, bu ko'rsatkich 2019-yilda yetishtirilgan shu turdagi mahsulotlar bo'yicha (21057,7 ming tonna) 102,3 % ga oshdi.

Agarda bu ko'rsatkichlarni xalq jon boshiga solishtirganda tibbiy me'yorlar asosida iste'mol darajalariga taqqoslab tahlil qiladigan bo'lsak, 2023-yilda bosqichma-bosqich mahsulotlar iste'moli meditsinalik me'yorlar bo'yicha 113 kg ni tashkil qilgan bo'lsada, ishlab chiqarish hajmi 300 kg (2,7 marta ko'p), poliz ekinlar bo'yicha tibbiy me'yorlar 19,3 kg bo'lib, ishlab chiqarish 61 kg (3,2 marta ko'p), kartoshka iste'moli me'yorlari 50,4 kg bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 78 kg ni (1,5 marta ko'p) tashkil qilgan.

1-jadval

**Qoraqalpog'iston Respublikasi barcha turdagi ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ko'rsatkichlari [4]**

№	Mahsulot turi	O'lcham birligi	2021 y.	2022 y.	2023 y.
<b>1</b>		<b>tonna</b>	<b>277986,0</b>	<b>271071,0</b>	<b>287103,0</b>
	Shunda:	x	x	x	x
1.1	Bug'doy	tonna	175742,0	147216,0	165899,0
1.2	Makkajoxori	tonna	25465,0	31849,0	29878,0
1.3	Oq jo'xori	tonna	17574,0	19987,0	x
1.4	Tori	tonna	991,0	1237,0	x
1.5	Suli	tonna	0,0	0,0	x
1.6	Sholi	tonna	47206,0	52768,0	51640,0
2	Kartoshka	tonna	85700,0	89365,0	90584,0
3	Sabzavotlar, jami	tonna	286812,0	301497,0	314563,0
4	Poliz, jami	tonna	152628,0	164723,0	173474,0
5	Mevalar va rezavorlar	tonna	57889,0	61986,0	64898,0
6	Uzum	tonna	10413,0	11114,0	11531,0
7	Go'sht (sof og'irligi)	tonna	111 069,0	116 386,0	120 504,0
8	Sut	tonna	404 778,0	418 801,0	434 002,0
9	Tuxum	tonna	341 296,0	379 731,0	386 951,0
10	asal	tonna	753,0	799,3	835,9

Tahlillarga nazar tashlaydigan bo'lsak, davlatimiz rahbari tamonidan ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan mustaqil siyosati natijasida 1991-2017 yillar davomida mahsulotlari importi deyarli 3 marta qisqardi, sug'oriladigan yerlarda g'alla maydoni 221 ming gektardan 1 mln. 405,4 ming gektarga yoki 6,4 martaga, hosildorlik 22,2 centnerdan 50,8 centnerga oshgan. Respublika bo'yicha mahsulotlar yetishtirish 1991-yilda 1,9 mln., 2000-yilda 3,9 mln., 2010-yilda 7,4 mln., 2023-yilda bo'lsa 7,6 mln. tonnani tashkil qilib, 1991-yilga solishtirganda 4 martaga. Aholi jon boshiga ishlab chiqarish bo'lsa, o'rtacha 2,7 martaga oshdi. Shuning bilan birga poliz ekinlarini yetishtirish 1991-yildagi 3.35 mln. tonnadan 2023-yilda 8,52 mln. tonnaga yokida 2,5 martaga, kartoshga yetishtirish solishtirmlari turda 351,2 ming tonnadan 2 mln. 250,4 ming tonnaga yokida 6,4 martaga, poliz mahsulotlarini yetishtirish 925,8 ming

tonnadan 1558,0 ming tonnaga yoki 1,7 martaga, meva yetishtirish 516,6 ming tonnadan 2 mln 260,9 ming tonnaga yoki 4,4 martaga, uzum yetishtirish 480,4 ming tonnadan 1322,1 ming tonnaga yoki 2,8 martaga oshishga erishildi.

Aholi jon boshiga poliz ekinlarini ishlab chiqarish 1991-yilda 138,6 kg ni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 284,5 kg ni ( 1991-yilga solishtirganda 2,1 marta ko'p) tashkil qilgan, solishtirmali turda kartoshka yetishtirish 17,0 kg dan 75,5 kg ga (4,4 marta ko'p), meva yetishtirish 25,1 kg dan 75,4 kg ga (3 marta ko'p), uzum yetishtirish 23,3 kg dan 44,1 kg ga (190,0 %) oshgan. Chorvachilik yo'nalishini rivojlantirish va chorva mahsulotlarini yetishtirish bo'yichada ijobiy o'zgarishlarga erishildi.

1991-yilda respublika bo'yicha qoramollar soni 5,1 mln. (shunnan sigirlar 2,1 mln.), 2023-yilda bu ko'rsatkich 10,6



mln. (sonnan sigirlar 4,0 mln.) boshga yetib 2 hissaga, solishtirganda qoy va echkilar 10,1 mln. boshdan 17,7mln. boshga yetib 75,2 foizga, qush 35,2 mln. boshdan 52,3 mln. boshga yetib 48,5 foizdan oshgan.

Natijada xalq jon boshiga go'sht ishlab chiqarish o'rtacha 1991-yildagi 23 kg dan 2023-yil 38,7 kg ga yetib, 68,2 foizga, sut ishlab chiqarish 162 kg dan 261 kg ga yoki 62 foizga, tuxim ishlab chiqarish 114 donadan 146 donaga yoki 28,2 foizga ortdi.

#### 4. Natija va muhokamalar

Respublikamiz hukumati tamonidan agrobiznesda ish yuritish, mamlakat oziq-ovqat havsizligini taminlashga munosib qissa qo'shayotgan subyektlarning ishlab chiqarishini yanada kengaytirishni tashkillashtirish, iqtisodiy va sotsial tamondan rivojlanishini ta'minlash uchun quyidagi yo'nalishlarga yengilliklar berilib, qo'llab-quvvatlayapdi [3]:

-qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarning huquqlarini himoya qilish va natijali ish olib borish uchun amaliy yordam berish;

-oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish hamda ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish borasida poliz ekinlari, intensiv bog'chilik, juzumchilik, charvochilik, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, issixonalar tashkillashtirish borasida amalga oshirish bo'yicha asosiy dasturlar qabul qilish;

-qabul etilgan dasturlar doirasida xo'jalik subyektlariga banklar tamonidan kreditlar ajratish;

-mamlakat doirasida import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va eksportni mamlakat tamonidan qo'llab-quvvatlash va boshqalarni o'z ichiga oladi.

#### 2-jadval

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida dehqon va yakka yordamchi xo'jaliklarining tutgan o'rni [4]

№	Ko'rsatkichlar	2000	2005	2010	2015	2023
1.	Dehqon xo'jaliklar soni (ming)	3293	4240	4744	4731	4831
2.	Jami yer maydoni (ming ga)	519,0	784,6	788,5	739,6	762,6
3.	Jami ekin maydoni (ming ga)	401,5	445,4	471,5	477,2	472,5
4.	Bir xo'jalikka to'g'ri keladigan ortacha yer maydoni (ming ga)	0,157	0,185	0,166	0,156	0,158
5.	Yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotidagi ulushi (foizda)	66,0	61,7	62,9	62,6	63,6
6.	Ekin maydonlarining ulushi (foizda)	10,6	12,1	12,8	12,9	13,6

Sohada yuridik shaxs sifatida faoliyat ko'rsatayotganlar 22824 dan ortiq bo'lib, 4,5 foizini tashkil etgan. Hozir har bir dehqon xo'jaligi iqtiyorida o'rtacha 0,158 gektar suriladigan yer, 0,098 gektar ekin maydon bor. Jami hisoblanganda, yurtimizda xalq jon boshiga 0,12 gektar suriladigan yer to'g'ri keladi. FAO BMSH belgilangan kritik nuqta bo'lsa 0,053 gektar bo'lib hisoblanadi.

Dehqon xo'jaligi suriladigan yerlarning 12,5 foizini,

ekin maydonlarining 13,6 foizini band etgan holda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 60-64 foizini yetishtirmoqda. Qishloq xo'jalik mahsulotlari, ayniqsa, chorvachilik, oziq-ovqat mahsulotlarini etishtirishda dehqon xo'jaligi (yakka yordamchi) xo'jaliklari yetakchi o'rin tutadi. 2020-yili ular poliz ekinlarining deyarli 69,4 foizini, poliz ekinlarining yarmidan oshigini, mevaning 61,4, uzumning 53,9 kartoshkaning 84,0, go'shtning (tirik og'irlikda) 94,0, sutning 95,9, juning 87,5, tuxumning 63,5, qorako'l terisining 89,2 foizini yetishtirdi.

#### 5. Xulosa

Chorvachilikdagi eng muhim masala oziqaviy muommasi bo'lib hisoblanadi. Oziqaviy ekinlar maydonining chorva boshiga solishtirganda yil sayin kamayib borishi muommani yanada keskinlashtiradi. Sababi respublikamizda turizmning rivojlanishi go'sht va go'sht mahsulotlariga talabni yanada orttirishga olib keladi.

#### 3-jadval

Chorva hayvonlari va oziqaviy ekinlar maydoni dinamikasi [4]

Ko'rsatkichlari	O'lcham birligi	Yillar				
		2000	2005	2010	2015	2023
Qoramollar	ming bosh	5281,8	6571,4	8510,8	10995,2	12471
Qoy-eschkilar	ming bosh	8863,6	11351,9	14438,3	18438,9	20640,1
Chorva uchun oziqaviy ekinlar	ming ga	429,0	290,3	320,4	327,1	243,4
<b>1 Gektar oziqaviy ekin maydoniga to'g'ri keladigan chorva mollari</b>						
Qoramollar	bosh	12,3	22,6	29,6	33,6	51,23
Qoy-eschkilar	bosh	20,7	39,1	45,1	56,4	84,7


Jadvaldagi ma'lumotlardan ma'lumki, respublikamizda qoramollar, qoy-echkilar 2023-yili 2000-yilga solishtirganda 2,3 marta ko'paygan, bir oziqlik ekin maydoni deyarli 2 martaga qisqargan. Bu o'rinda soni ortib borayotgan otlar, qush va boshqa jonzatlar hisobga olinmagan. Qolabersa, g'alla ekinlari va paxta hosillarining chegarasi bor. Oqibatta oziq tamiynoti yil sayin qiyinlashib, chorva mahsulotlarining va go'shtning bahosi uzluksiz ortib bormoqda.

Xulosa qilib aytish mumkin, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish hamda ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish borasida amalga oshirish bo'yicha asosiy dasturlar qabul qilish zarur.

#### Foydalangan adabiyotlar / References

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 apreldagi "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3680-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-3698698?ONDATE=13.12.2018>

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 – yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni 23.10.2019 yildagi PF-5853-son.



[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5-maydagi "Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3697-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-3723272>

[4] Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari.

[5] Маркаръян С.Б. Проблемы агропромышленной интеграции в Японии.– М.: Наука, 1982. - С. 70-74

[6] Fostolovich V.A. Integration of the ecological-economic approach of development strategy into the practice of agricultural enterprises management // Economy. Finances. Management: Topical Issues of Science and Practice, 2017, № 6. – 2017. p. 250-261

[7] Seyfullaeva A.T., Abishov M.S. Fermer xojaliklari agrobiznes iskerligini agrar tarawda tutqan ornı hám huqıqiy tiykarları // 2024-jıl 15-oktyabr kúni Qaraqalpaq mámleketlik universiteti, "Ekonomika" fakulteti «Ilim hám ekonomikanıń óz-ara baylanisi – modernizatsiyalıq hám innovatsiyalıq rawajlanıw tiykari» atamasında xalıqaralıq ilimiy-ámeliy anjumani MATERIALLAR TOPLAMÍ. [Tekst]: «Ekonomika» fakulteti. - Nókis, «BOOK PRINTS» baspası, 2024., 302-304 betler.

[8] Abishov M., Nuranov I. Agrobiznes subyektlari iskerliginiń swot-analizi. // Berdaq atındaǵı Qaraqalpaq mámleketlik universitetiniń xabarshısı, № 1(64) 2024, 79-81 betler.

## Mualliflar to'g'risida ma'lumot/ Information about the authors

Seyfullaeva Ayzada Tolibekovna Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti "Agrobiznes va buxgalteriya hisobi" kafedrası mustaqil tadqiqotchisi.  
E-mail: [ayzadaseyfullaeva@gmail.com](mailto:ayzadaseyfullaeva@gmail.com)  
Tel.: +998(97) 220 08 19

Abishov Muxammed Sarsenbaevich Qoraqalpoq davlat universiteti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası dotsenti.  
E-mail: [muxammedabishov@gmail.com](mailto:muxammedabishov@gmail.com)  
Tel.: +998(88) 507 00 82  
<https://orcid.org/0000-0003-2903-1663>



<b>A. Seyfullaeva, M. Abishov</b> <i>The importance of agribusiness in ensuring food security in the republic.....</i>	49
<b>Sh. Otakhonova, G. Eshmatova, D. Qurbonboeva</b> <i>Applying the movement of seeds on the surface of the working body and establishing the axis of the dividing plane of the electromechanical sorting device.....</i>	53
<b>N. Zayniddinov, U. Abdulatipov, U. Yulchiev</b> <i>Increasing the reliability of UzTE16M diesel locomotives used in the Republic of Uzbekistan.....</i>	56
<b>B. Mirzaev, Z. Zulfiqorova</b> <i>Technical control of gas ballon car service processes.....</i>	59
<b>Sh. Kamaletdinov, M. Sharapova</b> <i>The concept of developing an automated national information system for operational management of freight transportation.....</i>	63
<b>M. Tohirov, I. Absattorov</b> <i>Assessing the potential of large multimodal transport and logistics centers in Uzbekistan to operate as international “dry ports”.....</i>	71
<b>U. Ziyamukhamedova, J. Nafasov, Z. Jalolova, D. Akhmedova, A. Bobonorov</b> <i>Optimization of the design and material of the loosening drum during cotton primary processing.....</i>	78
<b>E. Shchipacheva, S. Shaumarov, D. Rashidov</b> <i>Mahalla center of the future in Uzbekistan: space for all generations.....</i>	82
<b>S. Uktamov, G. Pulatova, F. Kurbanova</b> <i>Optimization of the design and material of the loosening drum during cotton primary processing.....</i>	85
<b>Ch. Toshpulatov</b> <i>Optical phenomena observed in the atmosphere: physical foundations of rainbow, galo and fatamorgan phenomena.....</i>	90